




ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  OpenAIRE



+998945668868

<https://innoworld.net>

2025



INNOVATIVE WORLD

«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI

«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

innoworld.net



GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIY -AXLOQIY MADANIYATIGA TA'SIRI

BOZARBOYEVA MOXINUR SHOKIR QIZI
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim islohotlarining rivojlanib borishi, ijtimoiy tarmoqlar turlari va ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati mualliflar tomonidan keng yoritilib berilgan. Qolaversa ta'lim tizimidagi ijtimoiy tarmoq turlari va ularning zamonaviy vositalarini tadbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar olib borilgan. Maqolada internet orqali dunyoning istalgan nuqtasi bilan tezkor aloqa o'rnatish, zudlik bilan zarur axborot va ma'lumotlarni olish, bilim va ma'rifatni oshirishda uning beqiyos o'rnini va ahamiyati borligini beqiyos darajada yoritilgan. Ijtimoiy tarmoqlar bugun qudratli axborot qurolga aylanar ekan, dunyo miqyosida mafkuraviy -g'oyaviy tahdidlarni targ'ibot va tashviqot etishda muhim omil vazifasini o'tamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ongi va tafakkurini o'zgartirishga qodir bo'lgan turli axborot xurujlarining, g'oyalarning tobora chuqurlashib borayotganligi va uni oldini olishga qaratilgan ba'zi masalalarga e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyatini va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: globallashuv, madaniyat, axborot, modernizatsiya, ta'lim, tarbiya, ijtimoiy tarmoq, internet, jamiyat, davlat, yoshlar, millat, ma'naviyat, ommaviy madaniyat, sadoqat, fidoyilik, yurtga muhabbat, media, modernizatsiya, mafkura.

Hozirgi davrda hayotning barcha sohalarida globallashuv jarayonlari tobora kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, mafkuraviy ta'sir o'tkazish ko'lamini jadal kengaytmoqda. Zamonaviy jamiyat axborot va bilimlarga tayanadi. Bugungi kunda media, turli axborot va kommunikatsion texnologiyalarining turli xil shakllarining tez ommalashishi, ularning shaxsiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotimizga o'tkazayotgan ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Internetga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Oxirgi 50 yilda axborot uzatish tizimining ishi 300 ming marta tezlashdi. Sherri Terkl "Alone together" nomli kitobida "Ijtimoiy tarmoqlardagi suhbatlar insoniylikni barbod qilayotgan ahmoqlikning yangi shaklidir." Shu bois insonlarning axborot jamiyati xayotida faol va samarali ishtirok etishi uchun yangi bilim, ko'nikma va ko'rsatmalar zarur. Globallashuv zamonida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar oqimi tobora kengayib bormoqda. "Ijtimoiy tarmoq" atamasini 1954- yilda Angliyadagi "Manchester" maktabi

o'qituvchisi Jeyms Barnson odamlar bilan aloqa o'rnatishning bir vositasi sifatida joriy etgan . Ijtimoiy tarmoq internetga 1995- yilda kirib kelib , 2003-2004- yillarda keskin ommalashdi.[1:126].

XX asr oxiri va asrimiz boshlarida internetga kiruvchilarning ko'p qismi , asosan ,chatlardan foydalanib , keraksiz gap- so'zlar bilan internetda o'tirar edi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish 2007- yil oxiriga kelib ,juda keng tarqala boshladi. Olamda yuz berayotgan xabarlarini katta tezlikda , suratlarini bilan jonli tarzda tarqatish kabi xususiyatlari borligi sababli ijtimoiy tarmoqlar tez ommalashib ketdi . Ijtimoiy tarmoqlar oldingi a'naviy ommaviy axborot vositalari o'rnini egallab ,internet orqali ma'lumotlar ,suratlar va videolarni jo'natish ,almashish oddiy holga aylandi . Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar kishilar orasida tez ommalshib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarning ko'pi "Odnoklassniki", " Facebook" , "Twitter" kabilardan foydalanishadi . Shuningdek ,ijtimoiy tarmoqlar internetga kiruvchilarning o'zaro muloqat qilish va ma'lumot almashishlari uchun juda qulay vositadir.

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari virtual suhbatdoshlar bilan muloqat qilganda deyarli hamma narsa haqida ochiq-oydin gaplashadilar.Bu hol o'z navbatida o'zaro hurmat chegarasini buzib o'tadi, suhbatdoshlar o'rtasida salbiy muomila muhiti paydo bo'ladi .Ijtimoiy tarmoqqa o'rnashib olib ,o'zlarining buzuvchi e'tiqodlari bilan yoshlarni yo'ldan adashtirayotgan kimsalar kirdikorlari ,ayrimlarning bu ishlarga loqaydlik bilan qarayotganliklari, oqibatda ko'plab insonlar buzg'unchilar shuningdek ,ijtimoiy tarmoqdan nobakor kimsalar mamlakatda tinchlik-osoyishtalikni izdan chiqarayotgani aniq misollar bilan oshkor qilingan. Haqiqatdan ham ijtimoiy tarmqolarda shiddat bilan suhbatdosh izlashi zamonamiz avlodiga xos axmoqlikning belgisi sifatida qaraladi . Misol uchun hozirgi globallashuv zamonida ijtimoiy tarmoqlar ko'p taraflama ziyon keltirmoda , bu yoshlarning ongi ,dunyoqarashlarida , tarbiyasida va oilalar qanchadan qanchasi buzilib ketishiga sabab bo'lmoqda . Internet jamoatchilik fikrini egallashga qaratilgan kurashlarni o'zgartirib yubordi .Endilikda hech qanday kuch sarflamasdan ,qarshilik va cheklovlarga duch kelmay , omma ongiga osongina ta'sir ko'rsatish ,boshqalarning qarashlarini o'z manfaatlari sari yo'naltirish mumkin . Globallashuv zamonida ijtimoiit tarmoqlar har tomonlama ham ijobiy ham salbiy ta'sirlarini ko'rsatib bormoqda .

Aslini olganda ,axborot xurujlarini amalga oshirishda , avvalo ,inson ongi va qalbini zabt etish orqali mafkuraviy ta'sir o'tkazish g'oyasi yotadi.Mazkur holat davlatlarning barqarorligiga raxna solib ,millatning tarixan shakllangan qadriyatlarini,uning o'ziga xosligi ,millat va xalq sifatida yashab qolishini xavf ostiga qo'yadi.Ijtimoiy tarmqolar orqali g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan yovuz va buzg'unchi g'oyalar ta'sirini o'z vaqtida anglash ,ulardan doimo ogoh bo'lish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini har bir yurtidoshimiz ,birinchi navbatda ,yosh avlod vakillari chuqur anglab yetishlari lozim bo'ladi. .Xulosa qilib aytsak davlatimiz rahbari Shavkat



Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adaboyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz"[2]. Shunga qaramasdan bugungi davr bugungi kun dunyo miqyosida bo'hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab, o'z qaramog'iga ilintirishiga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan doimiy tarzda foydalanuvchilarda insonlarga bo'lgan munosabat hurmat, andisha yo'qolib boraveradi, loqaydlik ortib, ma'suliyat xissi pasayib ketadi. Ijtimoiy tarmoqlar buzg'unchi g'oyalarning tez tarqalishiga sabab bo'layotgani hamda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etayotgani ko'pchilikni jiddiy tashvishga solmoqda. Misrlik iymon Abdurahim huquq- tartibot xodimlari, tadqiqotchilar, akademiklar hamda OAV xodimlaridan iborat "Zamonaviy ommaviy axborot vositalari va terrorchilik harakatlari o'rtasidagi aloqalar" mavzuida so'rovnomaga o'tkazdi. Natijalarga ko'ra so'ralganlar hozirda ijtimoiy tarmoqlar -terrorchi guruhlar o'z a'zolari bilan bog'lanadigan, yangi a'zolarini jalb qiladigan eng muhim vosita ekanini tasdiqlashgan. Asosan Facebook tarmog'I, ushbu guruhlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun eng ko'p ishlatadigan ijtimoiy tarmoq ekanini bayon qilishgan. Shuningdek ular, "Youtube" media portalidan terrorchilar davlatlarini tarqatish uchun eng qulay vosita sifatida foydalanayotganliklarini aytishgan. Shuningdek tadqiqotchilar hozir yot guruhlar tuzog'iga ilinganliklarining akksariyati -xayotiy tajribasi terarli bo'lmagan, bilim saviyasi past va moddiy aldovlarga tez uchadigan yoshlar ekanini ham malum qilishgan.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar olamiga qanchalar chuqur kirib borayotganini turli xil vositalar orqali bilib olishimiz ham mumkin. Bugungi kunda dunyo aholisining 3 milliardga yaqin qismi ijtimoiy tarmoqlar a'zosi. O'zbekistonda esa hozir 10,2 milliondan ziyod aholi internetdan foydalanadigan bo'lsa, ularning 5 milliondan ko'pi ijtimoiy tarmoqlarga a'zo. Dunyoning eng rivojlangan mamlakati sanalgan AQSHdagi "Boston consulting group" tadqiqot markazi shuni ko'rsatdiki, dunyoning eng yirik to'rt mamlakati -Xitoy, Braziliya, Rossiya, va Hindistonda internetdan foydalanuvchilar soni 2015- yilda 1 milliarddan oshadi. Ularning 60 foizdan ortig'I 35 yoshgacha bo'lgan kishilarni tashkil etadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, har yili internetdan foydalanuvchilar dunyo bo'yicha keskin ortib bormoqda. [3:54]. Tadqiqotchilarning ijtimoiy tarmoq haqidagi xulosasiga ko'ra, yaqin o'tmishdagi avlod vakillari muloqat vositasi sifatida sms xabarlarini Afzal ko'rishgan bo'lsa, hozirgi avlod vakillari esa online tartibidagi suhbatlarni ustun ko'rmoqda. Qayd etilayotgan har beshta ajrimning bittasiga ijtimoiy tarmoqlar sabab bo'lmoqda.

Globalashuv insoniyat tarixi qadar uzoq tarixga ega bo'lib, tarixning barcha jarayonlarida yoki bosqichlarida uning elementlari kuztiladi. Globalashuv bu



keng tarmoqli tushuncha bo'lib turli xil jarayonlar bilan aloqasi mavjud. XX asrning ikkinchi yarmida bu jarayon sezilarli darajada rivojlandi. Ayniqsa Sharq va G'arb madaniyatida tafovutlar ko'lami rivojlandi. Telegram, telegraf aloqalari, televizion axssborotlar uzatish ko'laminin kengayishi, axborot uzatish erkinligining paydo bo'lishi ijtimoiy turmushda o'zining zararli oqibatlarga olib keluvchi axborotlarning paydo bo'lishidagi asosiy vositalar sifatida maydonga chiqdi.[4:] Bular oqibatida millatlar va millatlarning turmush tarsi hamda madaniyatida ham tafovutlar o'sib bordi. Ayniqsa, o'tgan asrning 80- yillarida "Rok" va "Pop" musiqa guruhlari, 90-yillarda "Roker" va "Metalistlar", asr oxirida yoki 2000- yillarda "Taqirboshlar" kabi fashistik guruhlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu dunyoning turli mintaqalarida ayovsiz tajavuzkorliklarga, narkomaniya, ya'ni o'z joniga suiqad qilish holatlarining o'sishiga, ularda egoistik va gedonistik tafakkur hamda intilishlarining shakllanishiga olib keldi. Bu kabi ta'sirlar muhim olamshumul kasb etmoqda. Globallashuv va internet tarmog'idagi ta'sirlar asosan yoshlar o'rtasida katta global muammolarga olib kelmoqda. Chunki yoshlarning internet tarmog'iga qaramligi kuchlidir. Yoshlar esa millat va davlat kelajagidir. Aytish joizki, yoshlarning globallashuvga nisbatan sog'lom dunyoqarashni rivojlantirishga qaratilgan dastur ishlab chiqishini davr taqozo qiladi. Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerda beparvolik va loqaydlik hukm sursa, u yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi va aksincha qayerda xushyorlik va jonkuyarlik hukm sursa, u yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.[5:27] Ayniqsa bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun uzoqni ko'zlagan siyosatining asl mohiyatini va maqsadlarini sezish, shlash katta ahamiyatga egadir. Zero, milliy ma'naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, o'z xalqiga, yurtiga bo'lgan muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir. Globallashuv ta'sirining yaqqol namoyon bo'lishi ko'rinishlaridan biri inson resurslarini shakllantirish va ularni keyinchalik boshqarishda muhim innovatsion vositaga aylanadigan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish amaliyotining keng tarqalishidir. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi.[6:78]. Ularning yordami bilan tilga oid, geografiy va professional to'siqlar yo'q qilindi, mehnat bozorida, tashkilot sharoitida inson resurlarini boshqarish jarayoni faollashdi va umuman kadrlar sohasida bir qator o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Zamonaviy tashkilotlar keng miqyosidagi tashkiliy muammolarni hal qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan: ichki muhitda aloqa kanallarini qurish uchun ham, tashqi aloqa vositas sifatida ham faol foydalanmoqda. Hozirgi kunda eng tezkor vosita sifatida ham ijtimoiy tarmoqlarni ko'rsata olamiz. "Bu haqda so'z yuritganda, eng tezkor axborot vositasi - Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Media va tengdoshlar bilan munosabatlarning ahamiyati oshib bormoqda, katta bulish jarayonining brogan sari ko'p qismi an'anaviy



muhitdan tashqarida kechmoqda . [7]. Yoshlarni qurshab turhan muhit axborot texnologiyalari bilan ta'minlangan doimiy onlayn bo'lish imkoniyati ta'siri ostida o'zgarmoqda .Yoshlar mediadan faolfoydalanmoqdalar , o'zlari mustaqil content tayyorlamoqdalar, masalan onlayn tarzda videoroliknlarni tayyorlashyaptilar .Aksariyat yoshlar o'zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflab , ijtimoiy tarmoqlardan kun bo'yi foydalanishadi . Shu tariqa,ular deyarli barcha axborotga ega bo'lishadi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib , u yoki bu masalaga munosabat bildirishadi .Biroq bildirilgan munosabatlarning baerchasini saviyali,ya'ni ma'naviyatli kishilarning fikri , deb bo'lmaydi, albatta . Ayniqsa bugungi kunda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan kimslar ham to'g'ri yo no'to'g'riligini o'ylab o'tirmasdan , ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan har qanday ma'lumotlar yuzasidan yoxud ba'zi masalalarga bilim va salohiyati yetadimi ,yo'qmi ,bundan qat'I nazar , o'z fikrini bildirishadi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Amin Yahyo.Internetdagi tahdidlardan himoya.- M.:O'zbekiston Mk, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib ,yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild.-T.: O'zbekiston , 2017
3. Karimov I.yuksak ma'naviyat -yengilmas kucha .-T.: Ma'naviyat , 2008 .
4. Kant I.Kritika chistogo razuma . – M.: ACT, Neoclassic ,2022.
5. Mirziyoyev Sh M, Yangi O'zbekiston strategiyasi ,- Toshkent .: O'zbekiston .2021.-B.150
6. "Zaharli tarkib davrida tanqidiy fikrlash" sakkizinchi xalqaro ilmiy - uslubiy konferensiya maqolalari to'plami". – Kiyev: Erkin Pressa Markazi ,M.: Ukraina Matbuot Akademiyasi ,2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi .

